

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
SAMARQAND FILIALI**

“Himoyaga ruxsat etildi”
Dasturiy injiniringi kafedrası
mudiri_____A.Qarshiyev
“ ____ ” _____2020 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Universitet Axborot Resurs Markazidan foydalanish mobil ilovasini yaratish (TATU SF misolida)

Bitiruvchi	_____	S.Qilichov
	Imzo	
Rahbar	_____	F.Iskandarova
	Imzo	
Taqrizchi	_____	_____
	Imzo	
XVF maslahatchisi	_____	_____
	Imzo	

Samarqand – 2020 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. TATU SAMARQAND FILIALI AXBOROT RESURS MARKAZI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR	6
1.1. Axborot resurs markazini tuzilishi va faoliyati	6
1.2. Axborot resurs markazining vazifalari va funksiyalari.....	10
II BOB. TATU SAMARQAND FILIALI AXBOROT RESURS MARKAZDAN FOYDALANISH UCHUN MOBIL ILOVA ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYALARI VA DASTURLASH TILLARI.....	14
2.1 Axborot resurs markazidan foydalanish mobil ilovasini ishlab chiqish uchun dasturlash tillari va texnologiyalari.....	14
2.2 Axborot resurs markazidan foydalanish mobil ilovasini yaratishda ma'lumotlar bazasidan foydalanish.....	24
III BOB TATU SAMARQAND FILIALI AXBOROT RESURS MARKAZIDAN FOYDALANISH MOBIL ILOVASINI YARATISH.....	32
3.1 Axborot resurs markazidan foydalanish mobil ilovasi strukturasini yaratish.....	32
3.2 Axborot resurs markazidan foydalanish mobil ilovasini yaratish hamda ilovani ishlatish jarayoni.....	38
IV BOB HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI.....	39
4.1. Ishlab chiqarishda xodimlar salomatligiga zarar yetishi va ish beruvchi masuliyati. Umumiy qoidalar.....	39
4.2. Ishlovchilarning hayot faoliyati havfsizligiga doir huquqlarini ro'yobga chiqarishdagi kafolatlari.....	41
XULOSA.....	48
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	
ILOVA.....	

KIRISH

Hozirgi paytda nafaqat yurtimizda balki dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida axborot texnologiyalari kirib bormagan biror bir sohani ko'rsatib o'tish juda mushkul. Bugungi kunda ilm-fan, texnika taraqqiyotini innovatsion texnologiyalar va zamonaviy dasturlarsiz umuman tasavvur etib bo'lmaydi. Ayni paytda ushbu texnologiyalarning ta'lim va ta'limning turli yo'nalishlariga, tibbiyot, informatika, qurilish va boshqa sohalarga kirib kelishi sezilarli yutuqlarni vujudga keltirdi. Bu esa o'z-o'zidan yurtimizni "Axborot Texnologiya" lari sohasida ulkan yutuqlarga erishayotganidan dalolat beradi.

Yurtimizda ta'limga e'tibor keng qaratilgan. O'quv muassasalari ichida oliy ta'lim o'quv yurtlari alohida ajralib turadi. Shu jumladan oliy ta'lim axborot-kutubxona sohasiga oid bo'lgan e'tibor alohida to'htalib o'tish lozim. Bu sohani rivojlanishiga har bir mutaxassis o'z hissasini qo'shmog'i zarurligi maqsadga muvofiqdir. Har bir Axborot resurs markazi tizimini moliyaviy holatini yaxshilash, moddiy- texnik bazasini takomillashtirish, talabalarga sharoit yaratib berish va zamon talablariga javob beradigan kompyuter qurilmalari bilan jixozlash hozirgi axborot texnologiyalari asrini dolzarb muommolaridan biridir. Axborot resurs markazlarini qanchalik rivojlanganligi uning xizmat ko'rsatishdagi ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanib, fodalanuvchilar va axborot resurs markazida ishlovchi xodimlarga qulaylik yaratilganligida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bularni barchasi Axborot resurs markazini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan elektron o'quv qo'llanmalar, internet saytlar va albatta Axborot resurs markazlari uchun yaratilgan mobil ilovalarga bo'lgan ehtiyojga borib taqaladi.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan normativ hujjatlar (qonun,qaror,farmoish...)da belgilanganidek Axborot-resurs markazlarini moliyalashtirish davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi o'tgan davrda, ayniqsa O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2006 yil 20-iyundagi "Respublika axolisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi № 381-sonli qaroridan so'ng Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi kutubxonalarining faoliyati va vazifasi tubdan o'zgarib, ularni axborot-resurs markazlariga aylantirildi. O'quv-tarbiya jarayonini metodik jixatdan taminlash, bunda bosma manbalardan tashqari, yangi axborot texnologiyalari, elektron axborot manbalarining rolini oshirish, kitobxonlarining axborot olishi madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladigan muassasaga aylantirish maqsadi ustuvor bo'lib qoldi.

Shularni hisobga olgan holda bitiruv malakaviy ishim axborot resurs markazidan foydalanish uchun mobil ilovasini yaratishga qaratilgan bo'lib, Ushbu loyiha davomida men axborot resurs markazini o'rganib chiqqan holda ish olib bordim va ortiqcha sarsongarchiliklarni bartaraf etishga harakat qildim. Shunday qilib, axborot resurs markazidan foydalanish uchun mobil ilovasini yaratishni bitiruv malakaviy ishim sifatida tanladim.

Bitiruv ishining maqsadi va vazifalari

Ushbu bitiruv ishining maqsadi va vazifasi qilib men yaratilayotgan mobil ilova bir qancha qulayliklarga ega bo'lishi kerakligini e'tiborga oldim:

- Men yaratgan mobil ilova asosan kutubxona xodimlari uchun qulayliklar yaratadi.
- Mobil ilova qog'ozbozlik tizimini kamaytirishga qaratilgan bo'lib, undagi ma'lumotlarni o'zlarini mobil telefonlariga o'rnatib ishlatish imkoniyati mavjud.
- Mobil ilova ma'lumotlar ba'zasiga bog'langan holda ishlaydi. Bunda ma'lumot qo'shish, o'chirish, tahrirlash va boshqa imkoniyatlari mavjud.
- Kutubxondagi mavjud kitoblar ro'yxati va sonini mobil ilovaga kiritish imkoniyati mavjudligi.

- Talabarni ro'yxatdan o'tkazish imkoniyati mavjudligi. Ularni guruhi kursi bo'yicha alohida ajratib ko'rsatish.
- Nafaqat talabalar o'qituvchilarni ham ro'yhatdan o'tkazib a'zo qilishi imkoni mavjud.
- Talabalar va o'qituvchilarni kutubxonadan kitob olishini va olgan kitoblarini qaytarib berish jarayonini mobil ilovada yuritish imkoni mavjudligi.
- Qidiruv tizimini ishlashi, yani talabalarni ismi sharifi bo'yicha qidirib topish hamda kitoblarni ham qidirib topish imkoniyati borligi. Bunday imkoniyatlar kutubxona xodimlarini ishini juda qulayliklarga olib keladi.
- Ilovani ishlatish juda oson va qulay qilib yaratilgan.
- Ilovani ishlatuvchi shaxs uchun ilovani qanday ishlatishni ilovanini o'zida batafsil ko'rsatib o'tkazilgan.

Mazkur bitiruv ishi Universitet Axborot Resurs Markazidan foydalanish mobil ilovasini yaratish kutubxona xodimlari va talabalar uchun foydalanishda qulay bo'ladi degan umiddaman.

Bitiruv ishining tuzilishi va tasniflanishi

Bitiruv ishi quyidagi qismlardan tashkil topgan. kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovlar qismidan iborat

BMI ning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishning maqsadi va vazifalari hamda bitiruv malakaviy ishining tuzilishi bayon qilingan.

BMI ning mazmunini to'liq yoritib berish uchun 4 ta asosiy bobdan tashkil topgan. KIRISH,

I BOB. TATU SAMARQAND FILIALI AXBOROT RESURS MARKAZI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1. Axborot resurs markazini tuzilishi va faoliyati

1.2. Axborot resurs markazining vazifalari va funksiyalari

II BOB. TATU SAMARQAND FILIALI AXBOROT RESURS MARKAZDAN FOYDALANISH UCHUN MOBIL ILOVA ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYALARI VA DASTURLASH TILLARI

2.1 Axborot resurs markazi mobil ilovasini ishlab chiqish uchun dasturlash tillari va texnologiyalari

2.2 Axborot resurs markazi mobil ilovasini yaratishda ma'lumotlar bazasidan foydalanish

III BOB TATU SAMARQAND FILIALI AXBOROT RESURS MARKAZIDAN FOYDALANISH MOBIL ILOVASINI YARATISH

3.1 Axborot resurs markazidan foydalanish mobil ilovasi strukturasi yaratish

3.2 Axborot resurs markazidan foydalanish mobil ilovasini yaratish hamda ilovani ishlatish jarayoni

IV BOB HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

4.1. Ishlab chiqarishda xodimlar salomatligiga zarar yetishi va ish beruvchi masuliyati. Umumiy qoidalar

4.2. Ishlovchilarning hayot faoliyati havfsizligiga doir huquqlarini ro'yobga chiqarishdagi kafolatlari

4.3. Jarohatlanish va kasb kasalliklarini o'rganish usullari

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

ILOVA

Xulosa qismida BMI ni bajarish va tayyorlashda egallangan amaliy bilim va ko'nikmalar va shular asosida kelib chiqqan umumiy xulosalar bayon etilgan. BMI ni shakllantirishda foydalanilgan ilmiy adabiyotlarni, birinchi prezidentimiz I.A Karimov AKT sohasida chiqargan bir qancha qaror va farmoyishlari, gazeta va ilmiy ommabop jurnal nashrlari va internet resurslari ro'yxati foydalanilgan adabiyotlarni ro'yhati qismida keltirib o'tilgan. Ilova iloji boricha tushunarli va ishlatishga oson hamda biron bir Axborot Resurs markazida ishlatilishi uchun qo'limdan kelguncha mukammal darajada qilishga harakat qildim.

I BOB. TATU SAMARQAND FILIALI AXBOROT RESURS MARKAZI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1. Axborot resurs markazini tuzilishi va faoliyati

Hozirgi kunda har qanday o'quv muassalarida kollej, letsey, maktab yoki oliy o'quv yurtlarida albatta Axborot resurs markazi (ARM) tashkil etilgan. ARM qanchalik yaxshi ishlasa, o'quvchi va yoshlarga yaxshi bilim olishida ancha ko'mak bo'ladi. Bugungi kunda ARM ning qay darajada ekanligini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlanganligida hamda talaba va yoshlarning bilim olishida ARM dan qay darajada foydalanilyotganligidan bilib olsa bo'ladi. ARM albatta turli xil kitoblar bilan to'ldirilishi lozim. Universitet mutaxassisligi bo'yicha, boshqa mutaxassisliklar bo'yicha va albatta badiiy kitoblar bo'lmog'i darkor. Bundan tashqari elektron darsliklar bilan ham ta'minlanishi kerak. Asosiysi internet tarmog'i bilan bugungi davrda ta'minlanishi shart va zarurdir. Chunki hozirgi kunda internet asosiy bilim manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Internetdan foydalanish unchun albatta zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlanishi shart. Zamonaviy kompyuterlar nafaqat internetdan foydalanishda balki elektron kitoblarni o'qishda hamda elektron darslar tayyorlashda ishlatiladi. Kutubxona faoliyati ham haftaning har kuni to'liq ish kunida ishlasa o'quvchi va talabarga bilim olishida katta yordam ko'rsatilgan bo'ladi.

Zamonaviy talablarni hisobga olgan holda kutubxona tarmog'ini tashkil qilishni takomillashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual ehtiyojlarini qondirishga, madaniy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlab qolishga yo'naltirilgan prinsipial yangi axborot markazlarini barpo etish, shuningdek, aholini yanada kengroq va tizimli axborot bilan ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi:

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi kutubxonalarini Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, OO'MTVning O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi, Xalq ta'limi vazirligi ixtiyoriga o'tkazish yo'li bilan oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari huzurida axborot-resurs markazlarini tuzish;

Qoraqalpog'iston Respublikasining Respublika kutubxonasi, viloyatlar ilmiy-universal kutubxonalari, shuningdek, Toshkent shahar markaziy kutubxonasi negizida idoraviy jihatdan , O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalrni rivojlantirish vazirligiga bo'ysunuvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar axborot-kutubxona markazlarini tashkil etish to'g'risidagi takliflari qabul qilinsin.

2. Quyidagilar axborot-resurs markazlarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

ta'lim muassasalari o'quvchilari hamda aholining zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda muntazam ta'lim olishi va mustaqil ravishda ta'lim olishiga ko'maklashish;

milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni keng ko'lamda targ'ib qilish, xalqning madaniy-tarixiy merosidan bahramand bo'lishini ta'minlash, ma'naviy boy va uyg'un kamol topgan shaxsning ijodiy o'sishi uchun imkoniyat yaratib berish;

yangi axborot texnologiyalari (ma'lumotlar elektron bazalari, internet resurslari) asosida aholiga axborot xizmati ko'rsatish;

madaniy, ta'lim, axborot hamda boshqa dastur va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ta'lim muassasalari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, milliy madaniyat markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish.

3. Axborot-kutubxona markazlari zimmasiga:

aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, uning ilmiy, ta'lim, axborot va madaniyat sohasidagi qiziqishlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tezkorlik bilan qondirish;

kitobxonlarga an'anaviy kutubxona xizmati ko'rsatishdan o'z axborot resurslarini yaratish va jahon ilmiy-ta'lim axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini berish yo'li bilan axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishga o'tishni ta'minlash;

universal axborot resurslari, milliy va xorijiy nashrlar (bosma, audiovizual, elektron va boshqa) fondlarni shakllantirish, saqlash va foydalanish uchun berish;

yig'ma elektron katalog yordamida axborot resurslarini birlashtiruvchi elektron kutubxonalar va ma'lumot bazalarini yaratish;

joylarda axborotlashtirish va kutubxonachilik ishi sohasidagi axborot-resurs markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda tashkiliy-metodik jixatdan ta'minlash vazifasi yuklansin.

4. Quyidagilar:

axborot-resurs tarmog'i va axborot-kutubxona markazlari sxemasi 1-ilovaga muvofiq;

axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarini yaratish topshirig'i 2-ilovaga muvofiq;

Respublika axborot-kutubxona tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Idoralararo kengash tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Respublika axborot-kutubxona tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Idoralararo kengash:

bir oy muddatda belgilangan tartibda kutubxonalarni, 4-ilovaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimidan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, OO'MTVning O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi, Xalq ta'limi vazirligi hamda O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi ixtiyoriga bepul o'tkazishni hamda ular oqilona qayta tashkil etilishini;

ikki oy muddatda barcha kutubxona fondlarini zamonaviy talablarni hisobga olgan holda qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun ekspert komissiyalari tuzilishini;

ikki oy muddatda axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari ishini belgilab beruvchi tegishli normativ hujjatlar ishlab chiqilishini;

axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari tanlov asosida malakali kadrlar bilan to'ldirilishini;

axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari yuksak samara bilan faoliyat ko'rsatishini hamda aholining barcha qatlamlari ulardan bimalol foydalana olishlari ta'minlansin.

Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda Idoralararo kengash to'g'risidagi nizomni ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

Amalga oshirilgan ishlarning yakunlari to'g'risida 2006 yilning 1 dekabrigacha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga ma'lumot berilsin.

6. Belgilansinki, axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari faoliyatini moliyalashtirish davlat byudjeti mablag'lari va homiylarning mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Iqtisodiyot vazirligi bilan birgalikda 2007 yilning yanvaridan boshlab axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlarida elektron kutubxonalarni tashkil qilgan hamda ilg'or axborot texnologiyalarini tadbiq etgan holda ushbu markazlarni kompyuterlashtirish uchun zarur mablag'lar ajratilishini nazarda tutsin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari axborot-resurs markazlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga ko'maklashishni ta'minlasin.

7. O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi zimmasiga:

axborot-kutubxona markazlarini belgilangan tartibda "ZiunoNYeT" axborot tarmog'iga bosqichma-bosqich ulash va ularning resurslariga aholi keng qatlamlarining kirishini ta'minlash;

elektron kutubxonalar tizimini rivojlantirish, kutubxona axborot resurslarini tizimlashtirish vazifasi yuklatilsin.

8. 2006-2007 o'quv yilidan boshlab Toshkent davlat madaniyat instituti va Toshkent axborot texnologiyalari universitetida "axborotlashtirish va kutubxonashunoslik" ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat kadrlari hamda magistratura tegishli mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash nazarda tutilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi:

bir oy muddatda axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari kadrlarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirishga nisbatan qo'yiladigan talablarni ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

elektron darsliklar va kutubxonalar, multimedia tizimlari va dasturlari yaratilishini ta'minlasin.

9. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tegishli vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

1.1 Axborot resurs markazi vazifalari va funksiyalari.

Axborot resurs markazining asosiy vazifalari

1. Institut faoliyati yo'nalishlari va kitobxonlarning axborotga bo'lgan talablariga muvofiq xolda kutubxona fondini shakllantirish. Ma'lumot-axborot xizmatini tashkillashtirish va yuritish.

2. ARM zahiralardan foydalanish qoidalariga muvofiq holda ixtiyoriy fondan talaba, doktorant, ilmiy xodimlar, o'qituvchi va boshqa kitobxonlarga axborotga bo'lgan talablariga binoan kutubxona va axborot-bibliografik xizmatini ko'rsatish.
3. Institutda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, o'quv jarayoni, institut bo'linmalarining ma'muriy-boshqaruv vazifalarini bajarishiga ko'maklashish.
4. Foydalanuvchilarni axborot madaniyatini tarbiyalash: kitobxonlarni ma'lumot-taxliliy materiallar bilan ishlashga, shu jumladan avtomatlashtirilgan tartibda tayyorlash. Foydalanuvchilarni kutubxona-bibliografiya bilimlarini asoslariga o'qitish, yangi an'anaviy bo'lmagan ma'lumot tashuvchilarda yangi hujjatlar bilan ishlashni o'qitish tizimini tashkillashtirish.
5. Tashkiliy masalalarni hal qilishda yangicha yo'llarini izlash, zamonaviy hisoblash texnikasi vositalari va boshqa zamonaviy texnik vositalarni qo'llashga asoslangan zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etish va ularning asosida ARM tomonidan kitobxonlarga xizmat ko'rsatish doirasini (ro'yxatini) kengaytirish va ularning sifatini oshirish.
6. Kutubxona va axborot xizmati savollari bo'yicha uslubiy ishlar olib borish.
7. Foydalanuvchilarni ma'lumot va adabiyotlar bo'yicha talablarini yanada to'liq qanoatlantirish maqsadida institutning tarkibiy bo'linma va jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik, boshqa kutubxonalar, ilmiy-texnik ma'lumot idoralari, muassasa va tashkilotlari bilan faoliyatni muvofiqlashtirish va birlashtirish.
8. Oliy ta'lim muassaslariga kutubxona xizmati masalalari bo'yicha ma'lumot-axborot va uslubiy yordam ko'rsatish.

Axborot rusurs markazining asosiy funksiyalari:

1. ARM vazifalari asosan, institut ta'lim dasturlari, o'quv rejalari va ilmiy izlanishlar mavzulari bo'yicha fondni butlashni ta'minlaydi. Har xil ko'rinishdagi va turdagi hujjatlarni (shu jumladan elektron ko'rinishda) sotib olishni tashkillashtiradi: o'quv, ilmiy, ma'lumot va xabar nashriyotlar, davriy nashriyotlarni, badiiy adabiyotlarni.

2. Fondlarni butlash uchun manbalarni aniqlashtiradi. Zarurat paydo bo'lganda boshqa kutubxona, muassasa va tashkilotlar bilan kitob almashinuvini amalga oshiradi.

3. Fondlarni optimallashtirish va shakllantirish maqsadida fondlarning tarkibi va ishlatilishini doimiy taxlil qiladi.

4. Vaqti-vaqti bilan fondlarni tekshiradi va ularning tarkibini kutubxona elektron va an'anaviy kataloglar yordamida ochib qo'yadi. ARMning fondlarini oshkor qiladigan va reklama qiladigan tematik bibliografik ko'rsatgichlar va axborot ro'yxatlarini, ARMning faoliyatini aks ettiradigan boshqa nashriyotlarni chiqaradi.

5. Doimiy asosda ARM fondlarini butligini, ularni o'z vaqtida hisobga olish, saqlash va nazorat qilishni ratsional tashkil qilish, san'yatiriya-gigiena choralari amalga oshirish, konservatsiya qilish, institut faoliyati doirasiga oid nashriyotlarni raqamli skanerlash va elektron katalogga qo'shish, o'zgartirish yo'li bilan ta'minlaydi.

6. Foydalanuvchilarga kutubxona va axborot-bibliografik xizmat ko'rsatishni amalga oshiradi:

6.1. O'kuv zallarida, o'quv, ilmiy adabiyotlarni berish abonementlarida va yagona kitobxon bileti asosida adabiyot berish joylarida foydalanuvchilarga tabaqalashtirilgan xizmat ko'rsatishni tashkillashtiradi. O'rnatilgan tartibda foydalanuvchilarga kutubxona fondiga ochiq kirish huquqini tashkillashtiradi.

6.2. Foydalanuvchilarga asosiy kutubxona xizmatlarini bepul ta'minlaydi:

kutubxona fondi haqidagi to'liq ma'lumotni kataloglar tizimi, kartotekalar va kutubxona axborotining boshqa shakllari yordamida taqdim etadi;

chop etilgan asarlar va boshqa hujjatlarni izlash va tanlashda konsultativ yordam ko'rsatadi;

kutubxona fondidan chop etilgan asarlar va boshqa hujjatlarni vaqtinchi foydalanishga beradi;

elektron katalog va nashriyotlarga kirish huquqini ta'minlaydi;

institutning ilmiy va o'quv ishlariga yordam sifatida bibliografik ko'rsatgichlar, adabiyotlar ro'yxatini tuzadi, bibliografik ma'lumotlar, bibliografik sharhlar tuzadi, mavzuli kitob ko'rgazmalarini tashkil qiladi;

6.3. Doimo foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan talabini o'rganadi.

7. Institut buyrug'i bilan tasdiqlangan ro'yxat asosida foydalanuvchilarga ularning talablariga binoan qo'shimga xazmatlar ko'rsatadi. Asosiy faoliyatga zarar yetkazmagan holda, foydalanuvchilarga taqdim etiladigan xizmatlarni kengaytirish va kutubxonaning ijtimoiy-madaniy rivojlantirish bo'yicha faoliyatini kengaytiradi.

8. Talabalar va foydalanuvchilarning boshqa toifalari uchun kutubxona-bibliografik bilimlar asoslari bo'yicha mashg'ulotlar tashkillashtiradi.

9. Amaldagi me'yoriy va huquqiy rasmiy hujjatlarga asosan kutubxona fondidan hujjatlarni muomaladan chiqaradi. Ish yo'nalishiga taalluqli bo'lmagan va ortiqacha takrorlangan adabiyotlarni qayta taqsimlashni bajaradi.

10. Kutubxona-bibliorgafiya va axborot faoliyatiga tegishli savollar bo'yicha mustaqil ravishda yoki institutning boshqa bo'linmalari, kutubxona yoki tashkilotlar bilan ilmiy va uslubiy konferensiyalar tashkil qiladi va o'tkazadi.

11. Kutubxonaning faoliyatini hamma yo'nalishlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy va tadqiqot ishlarini tashkillashtiradi va o'tkazadi.

12. Kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish bilan shug'ullanadi, ilg'or kutubxona texnologiyalarini tatbiq etadi. Foydalanuvchilarni qiziqishlarini o'rganish maqsadida turli tadqiqotlarni olib boradi.

13. Institutning xodimlari, ilmiy jamiyatlari va jamoa tashkilotlari bilan olib boriladigan ishlarni o'zaro muvofiqlashtiradi.

14. ARM kutubxonalar va boshqa muassasa va tashkilotlar bilan kutubxona-bibliorgafik va axborot faoliyati savollari bo'yicha birgalikda ish olib boradi.

15. ARM faoliyati bo'yicha uslubiy qo'llanma, texnologik va ish tartibi hujjatlarini ishlab chiqadi.

II BOB. TATU SAMARQAND FILIALI AXBOROT RESURS MARKAZIDAN FOYDALANISH UCHUN MOBIL ILOVA ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYALARI VA DASTURLASH TILLARI

2.1 Axborot resurs markazidan foydalanish mobil ilovasini ishlab chiqish uchun dasturlash tillari va texnologiyalari

Java dasturlash tili paydo bo'lishidan oldin dasturlar aniq bir operatsion tizim boshqaruvi ostida ishlaydigan qilib yaratilgan. Ma'lum bir operatsion tizim uchun yaratilgan dastur boshqa operatsion tizimda ishlay olmagan. Java dasturlash tili ushbu tushunchani o'zgartirib operatsion tizimga bog'liq bo'lmagan dasturlashni kiritdi. Java dasturlash tili zamonaviy dasturlash tili taminlab berishi kerak bo'lgan barcha funktsiyalarni o'z ichiga olganligi uchun qisqa vaqt ichida dasturchilar orasida keng tarqaldi. Jumladan, Java dasturlash tili quyidagi xususiyatlarga ega: • Ob'ektlarga ixtisoslashish xususiyatlari • Ko'pvazifalilik • Avtomatik xotira menejmenti (keraksiz ob'ektlarni yig'ishtirish) • Tarmoq va xavfsizlik xususiyatlari • Platformaga bog'liq emaslik Java dasturlash tili nisbatan yangi dasturlash tili xisoblansada ayni vaqtda boshqa dasturlash tillari singari mavjud imkoniyatlari bilan bir o'rinda turadi. Java dasturlash tili kompilyatsiya va interpretatsiya qilinuvchi til xisoblanadi. Java birlamchi kodi avval kompilyator yordamida sodda ikkilik instruktsi, bayt-kodga o'giriladi. Ushbu baytkod Java virtual mashinasi uchun dastur amallarini bajarish uchun ko'rsatma bo'lib xizmat qiladi. Bayt-kod universal bo'lib turli platformalar uchun maxsus yaratilgan barcha Java virtual mashinalari yordamida bajarilishi mumkin. Bu o'z navbatida Java dasturini platformaga bog'liq bo'lmasligini ta'minlaydi. Aksariyat zamonaviy dasturlash tillari inson uchun unda dastur yozishi va tushinishini osonlashtirib tuzilgan. Bunday dasturlar yuqori-darajali dasturlash tillari deb ataladi. Kompyuter tushunadigan tilni mashina tili deb ataladi va ular past-darajali tillar deb ataladi. Yuqori-darajali dasturlash tilida yozilgan dasturni kompyuterda ishga tushirishdan oldin uni mashina tiliga o'girib olish kerak. Bunday o'giruvchi dasturni

kompileyator va o'g'irish jarayonini kompileyatsiya deb ataladi. Aksariyat dasturlash tillarining bitta kamchiligi bu ularning kompileyatorlari yuqori-darajali dasturlash tilida yozilgan dasturni to'g'tidan-to'g'ri mashina tiliga o'giradi. Xar-hil kompyuterlar xar-hil mashina tilini ishlatishi sababli xar-bir kompyuter turi uchun o'zining maxsus kompileyatori zarur bo'ladi. Java dasturlash tili kompileyatsiyaga boshqacha yondashadi. Java kompileyatori dasturni aniq bir kompyuterning mashina kodiga tarjima qilmaydi. Buni o'rniga kompileyator dasturni *bayt-kod* deb nomlanuvchi tilga o'giradi. Bayt-kod aniq bir kompyuterning mashina kodi xisoblanmaydi. Bayt-kod Java virtual mashinasining mashina kodi xisoblanadi. Java virtual mashinasi o'z navbatida bayt-kodni o'zi joylashgan kompyuterning mashina kodiga o'girib amalga oshiradi.

Javanning qisqacha tarixi

Java dasturlash tilining tarixi 1991 yilga boradi. Sun Microsystems kompaniyasining muhandislari, Patrick Naughton va James Gosling, kabel televideniya qurilmalarida ishlatish uchun kichik dasturlash tilini yaratmoqchi qo'lishadi. Ushbu qurilmalarning hisoblash quvvati va xotirasi kichik bo'lgani uchun ularga mo'ljallangan dastur ihcham bo'lishi kerak bo'lgan. Bundan tashqari turli ishlab-chiqaruvchilarning qurilmalari har-xil protsessor ishlatishi mumkin bo'lganligi uchun dasturlash tili bir qurilma arxitekturasiga bog'liq bo'lib qolmasligi ham kerak edi. Proyekt "Green" deb nom oldi. Paskal dasturlash tilining asoschisi Niklaus Wirth birinchi bor portativ dasturlash tilini yaratish g'oyasi bilan chiqqan. Ushbu dasturlash tilida abstrakt mashina (ko'p xollarda bular virtual mashina deb ataladi) uchun dastur kodi generatsiya qilinib, keyin esa ushbu dastur kodi o'ziga mos interpretatori mavjud barcha mashinada ishlatilishi mumkin edi. "Green" proyekt muhandislari yaratayotgan dasturlash tilida virtual mashina va Paskal dasturlash tilidan farqli o'laroq obyektlarga ihtisoslashish printsiplarini qo'llab yangidasturlash tilini yaratdilar. Yaratilgan dasturlash tili Java deb nomlandi. 1996 yilda Sun kompaniyasi Java dasturlash tilining birinchi versiyasini chiqardi. Java 1.0 versiyasi imkoniyatlari unchalik ko'p bo'lmasada, 1998 yilda keyingi Java 1.2 versiyasida oldingi kamchiliklar to'ldirilib qo'shimcha imkoniyatlar qo'shildi. Ushbu versiyadan boshlab Java dasturlash tillari qatorida barqarorlashdi va

rasman Java 2 deya nomlana boshlandi. Java 1.3 va 1.4 versiyalarida muhim o'zgarishlar bo'lmasada Java 2 imkoniyatlari yaxshilandi va standart kutubxona kengaytirildi. 2004 yilda e'lon qilingan Java 1.5 versiyasida dasturlash tiliga ko'pgina kontseptual o'zgarishlar qo'shildi va rasman Java 5.0 deb nomlandi. Bundan tashqari Java dasturlash tilining shaxsiy kompyuterlar uchun "Standart versiyasi", mobil va kichik qurilmalar

c:\>javac

Hello.java

```
public class Hello {
public static void main(String[] args)
{
System.out.println("Hello World!");
}
}
```

Hello.java

Hello.class uchun "Mikro versiyasi" va serverlar uchun "Korporativ versiyasi" taqdim etildi. Ushbu qo'llanmada Java dasturlash tilining Standart versiyasi yoritilgan. Har keyingi versiyasidan Java dasturlash tilining standart kutubxonasi kengayib bordi. Quyidagi jadvalda ushbu o'zgarishlar ko'rsatilgan:

Versiya Klass va interfeyslar soni

Versiya	Klass	interfeyslar soni
1.0	211	1.1
1.1	477	1.2
1.2	1524	1.3
1.3	1840	1.4
1.4	2723	1.5
1.5	3270	

Java standart kutubxonasining kengayishi

2.2 Axborot resurs markazidan foydalanish mobil ilovasini yaratishda ma'lumotlar bazasidan foydalanish

Hozirgi kundagi ixtiyoriy dastur yoki ilova ma'lumotlar bazasiga bog'langan bo'ishi kerak. Java dasturlash tilida SQL lite ma'lumotlar bazasidan foydalanamiz. SQL liteni ishlatish va foydalanish uchun juda qulaydir. Ishlatish jarayoni ham oson.

Content provider nima?

Content providers – bu paketlararo ma'lumot almashash uchun ishlatiladigan provayder hisoblanadi.

Android tizimida, paketlararo ma'lumot almashish uchun content provider lardan foydalanish qulay hisolanadi.

Content provider lar oddiy ma'lumotlar bazasiga o'xshash bo'lib:

Kontent uchun so'rov yaratish, content ma'lumotlarini o'zgartirish, va yangi content qo'shish yoki uni o'chirish mumkin. Lekin, oddiy ma'lumotlar bazasidan farqli ravishda, kontent ma'lumotlari MB da (jadval asosida), faylda, yoki tarmoqda saqlanishi mumkin.

Android tizimida paketlarar ma'lumotlar almashish Android tizimida mavjud content provider larga quyidagilarni misol qilish mumkin:

Browser — ma'lumotlarni browser bookmark, browser history, va h.k. larda saqlash.

CallLog — ma'lumotlarni “missed calls”, “call details” va h.k. lar sifatida saqlash.

Contacts — contact ma'lumotlarini saqlash.

MediaStore — media fayllarni audio, video va image Sifatida saqlash.

Settings — qurilma ma'lumotlarini settings va preferences larda saqlash.

Bulardan tashqari, content provider larni foydalanuvchi tomonidan yaratish ham mumkin.

III BOB TATU SAMARQAND FILIALI AXBOROT RESURS MARKAZIDAN FOYDALANISH MOBIL ILOVASINI YARATISH

3.1 Axborot resurs markazidan foydalanish mobil ilovasi strukturasi yaratish

Axborot resurs markazidan foydalanish mobil ilovasini yaratishda bizga quyidagi bilimlar kerak bo'ladi:

- Java dasturlash tili ;
- Android studioda ishlay olish;
- SQL lite tizimida ma'lumotlar ombori bilan ishlash ;
- Qo'shimcha ma'lumotlar uchun kitoblar hamda internet saytlar ;


Strukturasini tuzishda albatta komyuterimizda android studio o'rnatilgan bo'lishi kerak. Android studio qotmasdan yaxshi ishlashi lozim. Android studioda foydalanib birinchi navbatda ilovaning strukturasini tuzib olishimiz kerak. Android studiodagi kompanentalardan foydalanib strukturasini qurish kerak. Kerakli kompanentalardan foydalanib arxitekturasini va dizaynini tuzib chiqamiz. XML kodlarini ham yaxshi bilib olib dizaynini e'tiborni jalb qiladigan va ishlatish uchun qulay qilib yaratishimiz lozim. Tashqi ko'rinishini tuzib chiqqanimizdan keyin asosiy qismga o'tamiz. Unda java dasturlash tilida ishlaymiz. Barcha kodlar java dasturlash tilida yoziladi. Bunda ham ma'lumotlar bazasida ishlash imkoniyati mavjuddir. SQL lite ma'lumotlar bazasidan fodalaniib ma'lumotlar bazasini quramiz. Agar ilovani yaratish jarayonida biron bir muommaga duch kelsak adabiyotlardan va internet saytlardan ma'lumot va vedio kurslardan foydalanamiz

3.2 Axborot resurs markazidan foydalanish mobil ilovasini yaratish hamda ilovani ishlatish jarayoni

Axborot resurs markazidan foydalanish mobil iloavasini asosiy oynasini ko'rinishi Interfeysi asosan uchta bo'limdan iborat.


- ✓ Kitoblar
- ✓ Kitobxonlar
- ✓ Dastur haqida

İlovani asosiy ko'rishi




1-rasm

Kitoblar bo'limida kutubxonada mavjud bo'lgan kitoblar ro'yxati bo'ladi.



2-rasm

Kitoblar bo'limida qidiruv tizimini ishlatib kerakli kitobni nomini izlash



3-rasm

Yangi kitob qo'shish sahifasi

4-rasm

Noto'g'ri kiritilgan ma'lumotlarni tahrirlash bo'limi

14:41

Kitob haqida

☒ Tahrirlash **USHBU KITOBNI BERISH**

NOMI O'tkan Kunlar

Muallif Pirimqul Qodirov

Yili 2002

Soni 50

O'ZGARTIRISH

5-rasm

Kitobxonlarga kitob berish funksiyasi

14:42

Kitobxonlar

Qidirish

Qilichov Suhrob
Toifa: talaba
guruhi: 409

Qilichov Zafar
Toifa: talaba
guruhi: 102

Kitobni berish
Oliy matematika kitobi Qilichov Zafar ga berilsinmi
YO'Q **XA**

Rejepov Aziz
Toifa: talaba
guruhi: 409


Mardonov Feruz
Toifa: talaba
guruhi: 401

Iskandarova Feruza
Toifa: o'qituvchi
Lavozimi: assisent

Xo'javorov Ilvos


6-rasm

Kitoblar bo'limidan berilgan kitobni qaytarib olish jarayoni.




7-rasm

Aynan bir kitobning kimlar olganligi ro'yxati.




8-rasm

Kitobxonlar bo'limida esa kutubxonaga a'zo bo'lganlar ro'yxati bor.



9-rasm

Kitobxonlar bo'limida qidiruv tizimini ishlatish.



10-rasm

Yangi kitobxon qo'shish jarayoni.



21:22

Yangi kitobxon qo'shish

Adding new User

☒ Talaba
☐ Magistr
☐ O'qituvchi

ISMI Jasur


Familyasi Orolov

Guruhi 409

BEKOR QILISH ADD

11-rasm

Dastur haqida bo'limi ko'rinishi.



14:47

Kutubxona

Dastur Haqida

Ushbu Dastur Tatu Samarqand Filiali uchun maxsus Tayyorlandi.

Bu Dastur Foydalanish uchun juda qulay bolib istalgan Android telefon egasi foydalana oladi

Dastur Kutubxona uchun Qator qulayliklarni beradi

Kitobxonlarni Ro'yxatdan o'tqazish

Kitoblarni Ro'yxatdan o'tqazish

Kitobxon va Kitoblarni Oson topish va ular haqida Axborot olish

Kitoblarni kitobxonlarga berish

